

**BOBURNING TARIXDA SHOH VA SHOIR HAMDA BUYUK DAVLAT
ASOSCHISI SIFATIDA TUTGAN O'RNI**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-kurs talabasi*

O'rinboyeva Farangiz

orinboyevafarangiz26@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola Temuriylar renessansining yirik vakili, buyuk sarkarda, davlat arbobi va qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Boburning jahon sivilizatsiyasi tarixida tutgan o'rnini fundamental tadqiq etishga bag'ishlanadi. Tadqiqotda Movarounnahrdagi o'zaro ichki nizo va feodal urushlar fonida Bobur shaxsiyatining shakllanishi, uning Markaziy Osiyodan Afg'oniston va Hindiston sari bosib o'tgan murakkab geosiyosiy yo'li tarixiy-qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada Bobur tomonidan asos solingan Hindistondagi Markazlashgan Boburiylar saltanatining (Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi) ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy asoslari, ushbu sulolaning Hind yarim orolida me'morchilik va san'at rivojiga qo'shgan hissasi ochib beriladi. Xususan, muallif "Boburnoma" asarining o'sha davr tabiiy fanlari, astronomiya, etika va davlat boshqaruvi prinsiplarini o'rganishdagi beqiyos ahamiyatini asoslab beradi. Shoir lirikasi esa insoniy iztirob, vatan sog'inchi va komil inson konsepsiyasi nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Maqola Bobur merosini nafaqat milliy, balki umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi sifatida xulosa qiladi.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, Sharq uyg'onish davri, temuriylar davri, tarixiy shaxs, davlat arbobi, sarkardalik faoliyati, memuar janri, avtobiografik asar, tarixiy xronika, badiiy-hujjatli manba, tarixiy haqqoniylik, manbashunoslik ahamiyati, adabiyot va tarix uyg'unligi, harbiy yurishlar, siyosiy islohotlar, diplomatik munosabatlar, ichki va tashqi siyosat, siyosiy barqarorlik.

Аннотация: Данная научная статья посвящена фундаментальному исследованию роли Захириддина Мухаммада Бабура — выдающегося представителя Тимуридского Ренессанса, великого полководца государственного деятеля и ученого-энциклопедиста — в истории мировой цивилизации. В работе проводится историко-сравнительный анализ формирования личности Бабура на фоне междоусобных феодальных войн в Мавераннахре, а также его сложного геополитического пути из Центральной Азии в Афганистан и Индию. Статья раскрывает социально-экономические и культурные основы централизованной империи Бабуридов (Великих Моголов), основанной Бабуром, и вклад этой династии в развитие архитектуры и искусства Индийского субконтинента. Особое внимание

уделяется «Бабур-наме» как неоценимому источнику для изучения естественных наук, астрономии, этики и принципов государственного управления того времени. Лирика поэта исследуется через призму человеческих страданий, ностальгии по родине и концепции совершенного человека. Статья резюмирует, что наследие Бабура является неотъемлемой частью не только национальной, но и общечеловеческой культуры.

Ключевые слова: классическая литература, период Восточного Возрождения, эпоха Тимуридов, историческая личность, государственный деятель, военная деятельность, жанр мемуаров, автобиографическое произведение, историческая хроника, художественно-документальный источник, историческая достоверность, важность источниковедения, гармония литературы и истории, военные походы, политические реформы, дипломатические отношения, внутренняя и внешняя политика, политическая стабильность.

Abstract: This scholarly article is dedicated to a fundamental study of the role of Zahiriddin Muhammad Babur — a prominent representative of the Timurid Renaissance, a great commander, statesman, and polymath — in the history of world civilization. The research provides a historical and comparative analysis of Babur's personality formation amidst the feudal conflicts in Movarounnahr, as well as his complex geopolitical journey from Central Asia to Afghanistan and India. The paper elucidates the socio-economic and cultural foundations of the centralized Baburid (Mughal) Empire founded by Babur and the dynasty's significant contribution to the development of architecture and art on the Indian subcontinent. Specifically, the author substantiates the unparalleled importance of the "Baburnama" in studying the natural sciences, astronomy, ethics, and principles of public administration of that era. Babur's lyrical heritage is examined through the lens of human anguish, nostalgia for the homeland, and the concept of the "Perfect Man." The article concludes that Babur's legacy is an indispensable part of both national identity and global cultural heritage, serving as a bridge between diverse civilizations.

KIRISH

Zahiriddin Muhamad Bobur Andijon (1483-yil 14-fevral) da tug'ilgan. Amir Temurning beshinchi avlodi, Farg'ona hukmdori Umarshayxning farzandi. Bobur 12 yoshda (1494) taxtga chiqdi / 1503-1504-yillarda Afg'onistonn egalladi. 1529-1525-yillarda Hindistonga marta yurish qiladi. Uch asrdan ortiq davom etgan (1526-1858) Boburiylar saltanatiga asos solgan, 26-dekabr 1530 yil Agra Hindistonda vafot etgan. Qabri keyinchalik vasiyatiga ko'ra Qobul shahriga

ko'chirildi. Bobur (taxallusi to'liq ismi Zahiridin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo) – o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili ; buyuk shoir; tarixchi, geograf,; davlat arbobi; iste'dodli sarkarda ; boburiylar asoschisi , temuriy shahzoda. Boburning otasi – Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi , onasi – Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o'qimishli va oqila ayo bo'lib , Boburga hokimiyatni boshqarish ishlariga katta ko'mak bergan , harbiy yurishlarida unga hamkorlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari sirdaryo bo'ylari Axsida , yilning qolgan faslini Andijonda o'tkazardi. Boburning yoshligi Andijonda o'tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar , yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy , fiqh, arab va foors tillarini o'rgandi. Huddi shu paytdan boshlab ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi. Dovyurakligi va jasurligi uchun yoshligidan Bobur (she'r) laqabini oldi. Bobur otasi yo'lidan borib mashhur so'fiy – Xoja Ahror valiyga ixlos qo'yadi va unoing tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu tariqatga sodiq qoldi. O'zining Boburnoma asarida Xoja Ahror valiyni ruhi uni bir necha bor falokatdan , hastalik va chorasizlikdan xalos etganini , eng og'ir paytlarida yordam berganini aytib o'tadi. Otasi Axsida bevaqt 39 yoshida halok bo'lgach , oilaning katta farzandi , 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o'tiradi.

Movarounnahr 15-asr oxirida nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan , deyarli mustaqil bo'lib olgan ko'plab viloyatlarga parchalanib ketdi.movarounnahr taxti uchun kurashlar va fitnalar avj olgan zamon edi. Ustiga ustak, Umarshayx Mirzoga bo'ysungan beklar Bobur mirzoga bo'ysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa , ayrimlari mustaqillik opayida qolganlari esa Boburga raqib bo'lgan amaki va tog'alariga qo'shilib Boburni jismonan yo'q qilish maqsadida edi. O'z amakisi va tog'asi bo'lmish Sulton ahmad Mirzo bilan Sulton MAhmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2-3 yilida mavqeini mustahkamlash , bek va amaldorlar biolan o'zaro munosabatni yaxshilash , qo'shini tartibga keltirish , davlat ishlarida intizom o'rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti , strategik va geografik jihatdan muhim bo'lgan Samarqandni egallash va Movarounahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash , mustahkamlashgan hamda Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi.bu paytda qisqa muddatga Samrqand taxtiga uchinchi hukmdor kelgan edi. Sulton Ahmad Mirzo vafoti (1494 yil iyul) dan keyin taxtga o'tirgan Sulton Mahmd Mirzo Samarqanda davlatni 5-6 oydan ortiq idora etmadi-qisqa muddatli kasallikdan so'ng 43 yoshida vafot etdi. Ularning o'rniga Buxoroda hokim bo'lgan o'g'li Boysunqur o'tiradi. 1495-1496 yillarda Samarqandga ikki marta yurish qiladi amo muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. 1497 -yil kuzida qalada yashirinishga majbur bo'ladi va Bobur 7 oylik qamaldan so'ng Samarqandni

egallaydi. Boysunqur Qunduzga qochadi, shahar qamal tufayli nihoyatda og'ir kunlarni boshdan kechirmoqda edi. Bobur qo'shinni ta'minlashda katta qiyinchilikka uchradi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Axbi tomonlarga qochib ketdi. Buning ustiga, Boburning askarlaridan ko'pchiligi undan yuz o'girib ukasi Jahongir Mirzoga borib qo'shildi. Andijondan ko'ngli notinch bo'lgan va iqtisodiy qiyinchilikka uchragan Bobur hamda ayni zamonda og'ior hastalikni booshdan kechirayotgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etib uni tashlab ketishga majbur bo'ldi. Atni damda Xo'jandga yetgand aAndijon ham qo'ldan ketganini eshitdi, so'ngra tog'asi Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon ko'magida Andijonni qayta egallashga urinishi foyda bermadi. Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo'shiniga salbiy ta'sir etib 700- 800 kishidan iborat navkarlari uni tark etadi. Ma'lum vaqt o'tgach, Bobur xo'jandga qaytadi, ko'p o'tmay, Marg'ilonni qo'lga kiritadi hamda Andijonni egallash tadbirlarini ko'radi. Nihoyat ikki yildan so'ng(1498-yil iyun) oyi uni qayta qo'lga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan sulh tuzib, uning ixtiyorida Axbini qoldirdi. Andijonni o'z hokimiyati ostiga oldi, ayni paytda Temuriylarning urushlari kuchaygan paytda Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi. U 1499-yilda Jizzax va Samarqand chegarasi orqali Qarshi va Shahrisabzga bostirib kiradi hamda katta o'ljalar bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay Shayboniyxon Buxoro va Qorako'lni egallaydi. Sulton Ali mirzo Samarqandni jangsiz topshiradi. Biroq shahar aholisi va zodagonlarning ma'lim qismi temuriylar hkmdorligini tiklash tarafdori edi. Ular Fargo'na hokimi Boburga maktub yo'llab, Samarqandni ishg'ol qilishga davat etganlar. Bobur 1500-yil kech kuzida o'z qo'shini bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga shahar darvozalarini ochib berdi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar qo'shini qirib tashlandi. Shaybobniyxon Buxoroga chekinadi hamda qisqa muddat ichida samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G'uzor sharhlari Bobur qo'lga o'tdi.

Temuriylarning to'xtovsiz janglari va og'ir soliqlardan toliqqan xalq Boburni qo'llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504- yil) majbur bo'ldi. Bobur 200-300 navkarlari orqali hisor tog'laridan Afg'onistonga o'tadi hamda Qobul va G'azna shaharlarini egallaydi. Bobur qobulni egallagach mustaqil davlat tuzishga kirishdi, qo'shinni tartibga keltirdi hamda qat'iy ichki intizom o'rnatdi. Kobulga umuman Afg'onistonga Bobur o'z yurti kabi qaradi. U afg'onistonda yirik qurilish va obodonlashtirish hamda kasb-hunarni rivojlantirish ishlarini amalga oshirdi. " Bog'i Shahroro ", " Bog'i Jahonoro", "O'rta bog", "Bog'l vafo" va " Bog'l Bobur" kabi oromgohlar tashkil etdi. Shahardagi Bola Hisor qalasini qayta ta'mirlatib, yangi imoratlar qurib, oilasi bilan shu qalada yashadi. Boburning Humoyun, Kamron, Gulbadanbegim va Hindol ismli farzandlari shu qalada tug'ildi. Onasi Qutlug' Nigorxonim Mirzo Ulug'bek 1506-yil bahorda vafot etdi hamda "Bog'i Navro'ziy " ga dafn etildi. Bobur Afg'onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi

va ravnaqi uchun jon beradigan tadbirli hukmdor sifatida qizg'in faoliyat ko'rsatdi, uning manfaatlari yo'lida oqilona va oodilona ish tutdi. Afg'onistondagi amaliy faoliyatiga ko'ra, Bobur butun Xurooson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig'i hamda muzfar sarkarda sifatida katta obro' orttira bordi, mintaqadagi siyosiy hayot e'tiborli o'ringa ko'rtarildi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga birgalikda chora ko'rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham taklif etishi ana shu yuksak nufuzni ko'rsatuvchi dalildir. Bobur shu taklif bo'yicha Hirotga o'tlanadoi Sulton Husayn Boyqaroning to'satdan vafot etishiga qaramay 1506-yilda, u Hirotga boradi va temuriy hukmdorlar bilan uchrashib muzokaralarda qatnashdi. 1507-yildan Hindistonga yurish boshladi ammo muvaffaqiyatsizlikka uchrab ortga Kobulga qaytdi. Eron shohi Ismoil bilan Shayboniixon o'rtasida 1510-yilda Marv jangida Shayboniixon vafot etadi. Bobur esa Ismoil bilan ittifoq tuzib, 1511-yilda Hisorni, Buxoroni, Samarqandni qayta egallaydi. 1512-yilda 28-aprelda Ko'li Malik jangida Ubaydullo Sulton boshliq Shayboniylardan yengilgan Bobur Hisor tomon ketadi. 1512-yilda Bobur Shayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur bo'ldi. Ayni shu paytdan boshlab u Movarounnahrni egallashtirish uchun butunlay umidini uzdi hamda butun e'tiborini Hindistonga yo'naltirdi. 1519-yil bahoriga kelib, Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini tuzdi hamda keyingi 5-6 yil davomida ko'plab yurishlarni amalga oshirdi. 1526-yil 21-aprel kuni Dehli Sultoni Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik qo'shiniga qarshi 12 ming qo'shin bilan jangga kirib uni tor-mor etishi tarixchilar tomonidan yuksak e'tirofga sazovar bo'ldi. Qisqa muddat oichida Rano Sango bilan bo'lgan jangda zafar quchib Shimoliy Hindistondan Bengaliyagacha bo'lgan hududlarni tasarruf etdi. Agra shahrini poytaxt sifatida etirof etib, unda katta obodonchilik va qurilish ishlarini boshlab yubordi. Natijada, Bobur Hindistonda 3 asr davomida hukm surgan Boburiylar sulolasiga asos soldi.

Bobur Hindistonda ham Afg'onistondagi kabi ko'plab ijtimoiy-hayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka o'zaro ichki nizo, qirg'inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e'tibor berdi, qurilish ishlariga boshchilik qildi. Boburning o'z guvohligiga binoan, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqti boshlangan; "Ul fursatlarda biror ikkirar bayt aytur edim", deb yozgan. Boburning eng mashhur va tarixchilar uchun muhiom bo'lgan asari o'zi tomonidan yozilgan "Boburnoma" asari hisoblanadi. "Boburnoma" Boburning shaxsiy hayoti, siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari, zamondoshlari, shuningdek, u yashagan va hukmronlik qilgan hududlarning ijtimoiy, siyosiy, madaniy va tabiiy holatini qamrab olgan keng qamrovli asardir.

Asarning ahamiyati shundaki, u faqatgina tarixiy voqealarni qayd etish bilan cheklanmay, balki muallifning shaxsiy kechinmalari, kuzatuvlari va xulosalarini ham

o'z ichiga oladi. "Boburnoma" asari Bobur tomonidan chig'atoy (eski o'zbek) tilida yozilgan. Asar muallif hayotining turli davrlarida bosqichma-bosqich yaratilgan bo'lib, unda Boburning Farg'onadagi yoshlik yillari, Movarounnahr uchun olib borgan kurashlari, Kobul va Hindistondagi faoliyati izchil tarzda bayon etiladi.

Asar taxminan 1494-yildan 1529–1530-yillargacha bo'lgan voqealarni qamrab oladi. Bobur uni rasmiy tarix sifatida emas, balki shaxsiy xotiralar asosida yozgan. Shunga qaramay, undagi ma'lumotlar tarixiy aniqligi va xolisligi bilan ajralib turadi.

"Boburnoma" memuar asar bo'lishiga qaramay, unda bir nechta janr unsurlari uyg'unlashgan: tarixiy xronika, avtobiografik asar, badiiy-adabiy yodgorlik, ilmiy-kuzatuvlar majmuasi. Asarning uslubi sodda, ravon va hayotiy bo'lib, muallif voqealarni bezaksiz, ochiq va samimiy tarzda bayon qiladi. Tarixiy ahamiyati: "Boburnoma" XV–XVI asrlar Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston tarixini o'rganishda muhim manbadir. Asarda: Temuriylar davridagi siyosiy kurashlar, hukmdorlar o'rtasidagi munosabatlar, harbiy yurishlar va davlat boshqaruvi masalalari aniq va batafsil yoritilgan. Bobur ko'plab tarixiy shaxslar — hukmdorlar, amirlar, olimlar va shoirlar haqida aniq tavsiflar beradi. Tarixchilar "Boburnoma"ni o'z davrining xolis yozilgan tarixiy hujjati sifatida baholaydilar. Geografik va etnografik ma'lumotlar "Boburnoma"ning muhim jihatlaridan biri undagi geografik va etnografik ma'lumotlarning kengligidir. Bobur: shaharlar va qishloqlar, tog'lar, daryolar, iqlim, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida ilmiy aniqlik bilan ma'lumot beradi. Shuningdek, turli xalqlarning urf-odatlarini, turmush tarzi, kiyinish madaniyati va an'analari tasvirlanadi. Bu ma'lumotlar "Boburnoma"ni geografiya va etnografiya fanlari uchun ham qimmatli manbaga aylantiradi. Adabiy va badiiy qiymati "Boburnoma" sof tarixiy asar bo'lish bilan birga, yuksak badiiy qiymatga ham ega. Unda tabiat manzaralari, inson ruhiyati, hayotning murakkab jihatlarini obrazli va ta'sirchan ifodalaydi. Ayrim o'rinlarda Bobur she'riy parchalar keltirib, asarning badiiy ta'sirchanligini yanada kuchaytiradi. Asar tili sodda, jonli va xalqona bo'lib, eski o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. "Boburnoma" asari XVI asrdan boshlab ko'plab tillarga — fors, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan. Bugungi kunda u jahon ilmiy doiralarida chuqur o'rganilmoqda va Sharq tarixining muhim manbasi sifatida e'tirof etilgan. G'arb olimlari "Boburnoma"ni Sharqdagi eng mukammal avtobiografik asarlardan biri deb baholaydilar.

Boburning vafotidan so'ng uning qudratli davlatining boshqaruvini uning avlodlari davom ettirdi. Humoyun (1508–1556) — sulolani saqlab qolgan hukmdor

Boburning o'g'li Nosiriddin Muhammad Humoyun Boburiylar sulolasining ikkinchi hukmdori hisoblanadi. Humoyun otasidan meros bo'lib qolgan hududlarni saqlab qolishda qator qiyinchiliklarga duch kelgan. U ichki nizolar va afg'on sarkardasi Sher Shoh Suriy bilan bo'lgan kurashlar natijasida vaqtincha taxtdan ayrilgan. Shunga qaramay, Humoyun siyosiy irodasi va diplomatik mahorati tufayli

Eron (Safaviylar) yordami bilan hokimiyatni qayta tiklashga muvaffaq bo'lgan. Uning hukmronligi Boburiylar sulolasining uzilib ketmasdan davom etishini ta'minlagan muhim bosqich bo'ldi. Humoyun ilm-fan va san'atga e'tibor bergan hukmdor sifatida ham tarixda qolgan. Akbarshoh (1542–1605) — Boburiylar

Jaloliddin Muhammad Akbarshoh Boburiylar tarixidagi eng buyuk hukmdorlardan biri sanaladi. U davlatni markazlashtirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va iqtisodiy islohotlar o'tkazishda beqiyos xizmatlar qilgan.

Akbarshohning eng muhim faoliyati: markazlashgan davlat boshqaruvini yaratish, soliq tizimini isloh qilish, turli din va millat vakillariga teng huquqlar berish, diniy bag'rikenglik siyosatini yuritishdan iborat bo'lgan.

U ilm-fan, adabiyot va san'at homiysi sifatida mashhur bo'lib, saroyda turli olimlar va ijodkorlarni jamlagan. Akbarshoh davrida Boburiylar davlati Hindistondagi eng qudratli imperiyaga aylangan. Jahongir (1569–1627) — adolat va san'at homiysi

Akbarshohning o'g'li Nuriddin Muhammad Jahongir davlat boshqaruvida adolat tamoyillarini ustuvor qo'ygan hukmdor sifatida tanilgan. U "Adolat zanjiri" orqali xalqning shikoyatlarini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish tizimini joriy qilgan.

Jahongir davrida: saroy san'ati, xususan, miniatyura san'ati yuksak darajada rivojlangan; Yevropa davlatlari bilan diplomatik aloqalar kuchaygan; tarixiy asarlar va memorable yozilgan.

Uning hukmronligi Boburiylar madaniyati rivojining muhim bosqichi bo'ldi.

Shohjahon (1592–1666) — me'morchilik taraqqiyotchisi. Shohjahon Boburiylar sulolasining eng mashhur hukmdorlaridan biri bo'lib, u asosan me'morchilik sohasidagi ulkan yutuqlari bilan tanilgan. Shohjahon davlati iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lib, madaniyat va san'at yuqori cho'qqiga ko'tarilgan. U Boburiylar saltanatining eng porloq davrini ifodalaydi. Avrangzeb (1618–1707) — qudratli, ammo murakkab hukmdor. Avrangzeb Olamgir Boburiylar sulolasining eng uzoq hukmronlik qilgan hukmdori bo'lgan. U davlat hududini maksimal darajada kengaytirgan, ammo diniy siyosatda qat'iylikni kuchaytirgan.

Avrangzeb davrida: imperiya hududi kengaydi; markazlashuv kuchaydi; biroq diniy bag'rikenglikning susayishi ichki qarama-qarshiliklarni kuchaytirdi. Bu omillar keyinchalik Boburiylar davlatining zaiflashuviga sabab bo'ldi. Avrangzebdan keyingi hukmdorlar markaziy hokimiyatni saqlab qolishga qodir bo'lmadi. Ichki nizolar, iqtisodiy inqiroz va Yevropa mustamlakachiligi, xususan Britaniya imperiyasining kuchayishi Boburiylar davlatining yemirilishiga olib keldi.

Bahodirshoh Zafar (1775–1862) Boburiylar sulolasining so'nggi hukmdori bo'lib, 1857-yilgi Hind qo'zg'olonidan so'ng taxtdan ag'darilgan.

Bobur uzoq tarixda nafaqat shoh balki shoir sifatida ham katta e'tibor qozondi. Uning yagona maqsadi Amir Temur davlatini qayta tiklab, Movarounnahrda nizolarga barham berish edi. Ammo ichki g'animlar tufayli u o'z vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi hamda begona yurtlarda o'zining yangi sulolasi

Boburiylar sulolasiga asos soldi. Bobur hamma borgan joylarini gullab yashnatdi , Afg'oniston va Hindistonda buyuk davlar qurib shoh bo'lioshiga qaramay bir umr o'z vatanini sog'inib yashadi. O'zining ko'plab ruboiylarida vatan sog'inchini madh etdi:

Ko'pdin berikim, yoru diyorim yo'qtur,

Bir lahzayu bir nafas qarorim yo'qtur.

Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,

Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

XULOSA

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki o'zbek mumtoz adabiyoti va jahon tarixida muhim o'rin egallagan nodir siymo hisoblanadi. Uning hayoti va faoliyati murakkab siyosiy kurashlar, doimiy janglar va og'ir sinovlar bilan kechgan bo'lsa-da, Bobur o'z maqsadidan voz kechmagan, kuchli iroda va qat'iyat namunasini ko'rsatgan.

Boburning Movarounnahrdagi muvaffaqiyatsizliklari uni siyosiy maydondan siqib chiqarmadi, aksincha, Afg'oniston va Hindistonda yangi, qudratli Boburiylar saltanatiga asos solishiga zamin yaratdi. U Kobul va Hindistonda markazlashgan davlat boshqaruvini yo'lga qo'yib, mamlakat obodonchiligi, iqtisodiy rivoj, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga katta e'tibor qaratdi. Ayniqsa, uning bunyodkorlik faoliyati, bog' va inshootlar qurdirishi hukmdorning yurtparvarlik va xalqparvarlik fazilatlarini yaqqol namoyon etadi.

Boburning eng buyuk meroslaridan biri — "Boburnoma" asari bo'lib, u XV–XVI asrlar Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston tarixini o'rganishda beqiyos manba hisoblanadi. Asarda tarixiy voqealar bilan bir qatorda muallifning shaxsiy kechinmalari, geografik, etnografik va madaniy kuzatuvlari ham o'z aksini topgan. Bu jihatlar "Boburnoma"ni nafaqat tarixiy, balki adabiy va ilmiy asar sifatida ham yuksak darajaga ko'taradi.

Bobur asos solgan sulola uning vafotidan so'ng Humoyun, Akbarshoh, Jahongir, Shohjahon va Avrangzeb kabi hukmdorlar davrida yuksak taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirdi. Ayniqsa, Akbarshoh va Shohjahon davrlarida Boburiylar davlati siyosiy qudrat, madaniyat va me'morchilikda eng yuqori cho'qqiga chiqdi. Biroq keyingi davrlarda ichki nizolar va tashqi bosimlar natijasida saltanat zaiflashib, oxir-oqibat barham topdi.

Umuman olganda, Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati milliy tariximizda jasorat, matonat, bunyodkorlik va ma'naviy yuksaklik timsoli bo'lib qoladi. Uning boy tarixiy va adabiy merosi bugungi kunda ham yosh avlodni vatanparvarlik, ilmga muhabbat va adolat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Boburnoma". Zahiriddin Muhammad Bobur
2. "Bobur va Mungallar tarixi" X. Yoqubov
3. "Mungallar tarixi". A. Sobirov
4. "Babur: Timurid Prince and Munghal Emperor". Stephen F. Dale
5. "Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor" translated by Anette Susannah Beveridge.